



O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI

2

2025

O'ZBEK TILI, ADABIYOTI
VA FOLKLORI INSTITUTI



O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI

Jurnalga 1958 yil yanvarda
Oybek asos solgan

Bir yilda olti marta chiqadi

2
2025

O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi
O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti

Toshkent - 2025

Bosh muharrir:

Nizomiddin MAHMUDOV

Tahrir hay'ati:

Maqsud ASADOV
Rahmatulla BARAKAYEV
Bahodir KARIMOV
Durdona LUTFULLAYEVA
Abduvahob MADVALIYEV
(*bosh muharrir o'rinbosari*)

Yorqinjon ODILOV

Ergash OCHILOV

(*mas'ul kotib*)

Gulchehra RIXSIYEVA

Shomirza TURDIMOV

Boqijon TO'XLIYEV

(*bosh muharrir o'rinbosari*)

Almaz ULVIY

Baxtiyor FAYZULLOYEV

Durdona XUDOYBERGANOVA

Jabbor ESHONQULOV

Berdak YUSUF

Ulug'bek HAMDAMOV

Xayrulla HAMIDOV

Manzilimiz:
100060, Toshkent, Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy
Telefon: (71) 233-71-44
E-mail: jurnal_uzlit@mail.ru

O'zbek tili va adabiyoti
№ 2, 2025

Muharrir E. Ochilov
Kompyuterda sahifalovchi G. Eshmurodova

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
19.10.2017 yilda ro'yxatga olingan.
Guvohnoma №0053

MCHJ "GLOBAL POLIGRAF DIZAYN"
Bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma № 2
Manzil: Toshkent shahar, Yunusobod tumani,
Nurmakon ko'chasi, 1-uy.
Qog'oz bichimi 70x108, 1/16
Ofset bosma. "Times New Roman" garniturasini.
Shartli-bosma tabog'i 8.5
Tiraj 415 nusxa. Kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

Tilshunoslik

N.Mahmudov. Badiiy matnda aldangan kutilganlik	3
Y.Odilov. Til siyosati falsafasi.....	14
O.Tojiyev. Sodda gaplarda mazmuniy sinkretizm	20

Adabiyotshunoslik

M.Xudoyqulov. Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy mezonlari	28
Q.Yo'lchiyev. Rauf Parfi uchliklarida makon va vaqt	33

Ilmiy axborot

B.Rajabova. Turdi ijodining o'rganilishiga doir.....	38
D.G'ayipov. Shuhrat Matkarimning "Maqar" qissasi haqida	44
F.Bafoyev. Hazrati Ali haqidagi xalq qissalarida	48
H.Jo'rayeva. Husayniy "Devon"ining Aziz Qayumov tayyorlagan nashri haqida	52
H.Turdiyeva. O'zbek-tatar adabiy aloqalari tadqiqotchisi	57
S.Kurbanova. Shukrulloning "Hasrat bog'i" dramasi	62
N. Saydahmedova. Muhammad Yusuf ijodida mifologik obrazlar	66
Sh.Olimov. Jadid tarixnavisligida Sadridin Ayniyning o'rni	69
B.Nurbadalova. Abdurashid Abdug'afurov – ogahiyshunos	74
M.Rustamova. Matnazar Abdulhakim she'riyatida floristik obrazlar	77
S.Yangiboyeva. Diniy asarlar nashri va tadqiqiga oid	81
A.Uralov. Turkiy tillarda analitik shakllar asimmetriyasi	84
M.Abdurahmonova. Zamonaviy tibbiy diskursda strategiya va taktikalar	89
R.Madaminova. Hofiz Xorazmiy "Devon"idagi hayvonot nomlari	93
O.Ashirov. Muhim lingvistik manbalardan biri sifatida	99
Sh.Qahhorov. <i>Oqbo'ya</i> nekronimi etimologiyasiga doir	103
N.Sa'dullayeva. Tilshunoslikda oraliq sheva muammosi	107
M.Mirzayeva. <i>Qo'ng'iroq</i> etnooykonimi xususida	112

Fanimiz zahmatkashlari

Olim S., Davlatov O., G'afforova Z. Muslihiddin Qutbiddinovich Muhiddinov	116
M.Asadov. Yetuklik saodati	120
B.Fayzulloyev, B.Jabborov. Ikki xalq xizmatida	124

TANQID. TAQRIZ. BIBLIOGRAFIYA

B.To'xliyev. O'zbek navoiyshunosligining ulkan yutug'i	126
--	-----

Ilmiy hayot

X.Nishonova. Oybek ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati	131
--	-----

Tayanch soʻz va iboralar: adabiy hamkorlik, oʻzbek-tatar, maʼrifatparvarlik gʻoyalari, matbuot, tarjima.

Ключевые слова и выражения: литературное сотрудничество, узбеко-татарские связи, идеи просвещения, пресса, перевод.

Key words and word expressions: literary cooperation, Uzbek-Tatar, ideas of enlightenment, press, translation.

Saida KURBANOVA

SHUKRULLONING "HASRAT BOG'I" DRAMASI

Shukrulloning "Hasrat bog'i" dramasi 70 yillik mustabid tuzumning millat taqdiriga koʻrsatgan fojiviy taʼsiri qahramonlar fojiasi bilan vobastalikda aks ettiriladi. Dramada zamon va shaxs fojiasi, qatagʻon zaxmi, Afgʻon urushi va Chernobil fojialari, shoʻrolar davridagi buyruqbozlik va byurokratizm, "shaxsga sigʻinish"ning insonlar taqdiriga salbiy taʼsiri kabi muammolar dramatik holatlarda boʻy koʻrsatadi¹. Bir soʻz bilan aytganda, dramada nafaqat ayrim shaxslar fojiasi, balki butun bir millatning maʼnaviy inqirozi masalasi badiiy gavdalanir. Bu inqiroz chetdan aralashuvlar va tazyiqlar asosida, inson hayotiga bepisandlik bilan qarashlar oqibatida yuz berganligi bilan ijtimoiy fojiani oʻzida mujassam etadi. Dramaning "Hasrat bog'i" deb atalishi ham ramziy maʼno kasb etib, u asar qahramonlari dard-iztiroblari hamda zamona hasratlaridan hikoya etish maʼnosi bilan birlashib ketadi.

Drama kompozitsiyasiga eʼtibor qaratsak, u 3 parda, 6 koʻrinishdan iborat. Dramada Oʻlmas (oʻldirilgan askar), Ona (Oʻlmasning onasi), Murod (Oʻlmasning togʻasi, laqabi "Murod qoʻrqoq"), Mels, Ashrafiy, Azim (Oʻlmasning doʻstlari), Jamila (Melsning sevgilisi), Xoliqulov (partiya rahbarlaridan biri), Nozanin (Xoliqulovning kotibasi), Mirsoat (devonasifat odam), Ziyod (mayxoʻr), Qosim (choyxonachi) kabi personajlar ishtirok etadilar.

Shukrulloning deyarli barcha dramalarida zamon va uning qahramonlari iztiroblari, fojialari dramatik harakat orqali badiiy talqin etiladi. Dramaturg zamon va qahramon fojiasini obrazlarning ichki his-tuygʻulari, kechinmalari orqali yanada chuqur ochadi. "Hasrat bog'i" sheʼriy dramasi bosh qahramonlari ikki yosh – Mels va Jamila. Ular bir-birlarini qattiq sevadi. Ammo mashʼum oʻtmish bu sevisganlarni bir-biridan ayiradi. "Melsning otasi Jamilaning otasini repressiya yillarida ottdirgan" deb aytilgan mashʼum haqiqat tufayli ikki yoshning hayoti ostin-ustun boʻladi. Aslida, dramaturgning bosh maqsadi ikki yosh oʻrtasidagi muhabbat va uning darz ketishidan koʻra ham muhimroq – ijtimoiy-siyosiy muammoni yoritishdir.

Maʼlumki, dramaning asosini dramatik harakat va konflikt, xarakterlar va vaziyatlar toʻqnashuvi tashkil etadi. Drama nazariyasi bilan shugʻullangan olimlar konflikt, kolliziya va toʻqnashuvlarni dramatik harakatni yuzaga chiqaruvchi asos,

¹ Drama xususida oʻz davrida matbuotda bir nechta taqrizlar eʼlon qilingan: И к р о м о в Х. "Хасрат бог" и да и на доматлар / Шукрулло и жодининг олмос кирралари. – Тошкент: "Мумтоз сўз", 2016, 456 – 459-бетлар; Т у р с у н о в Т. Шоир Шукруллонинг "Хасрат бог"и драмасига тақриз / Шукрулло и жодининг олмос кирралари, 459 – 460-бетлар.

deb ko'rsatadilar. "Hasrat bog'i" dramasi syujetidagi dramatik harakatni ijtimoiy, xarakterlararo hamda psixologik konfliktlar yuzaga chiqaradi. Bu konfliktlar xarakterlar o'rtasidagi to'qnashuvlarda, qahramonlarning Sho'ro hukumati tartiblari bilan munosabatlarida yoki personajlarning ruhiy kechinmalaridagina ifodalanib qolmay, balki ularni yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan dramatik vaziyatlar, holatlar bilan ham bog'liqdir. Xususan, dramaning ikkinchi ko'rinishida ijtimoiy (qahramon va muhit konflikti) va psixologik konflikt Onaning oh-u dardlari orqali nihoyatda ta'sirchan ochiladi:

Ona

Sovetlarning uyi kuysin, meni kuydirgan.

Murod

(bu gapdan cho'chib)

Hoy-hoy, sekin, hukumatdan og'iz ocha ko'rmang.

Ona

Peshonamni sho'r qildi-ku.

Murod

Bu gapni aytmang.

Ona nimadir demoqchi edi, Murod cho'chib qulog'ini qashigandek bekitib nari ketadi.

Ona

*Onalarga buncha mehr bergandan ko'ra,
Bo'lmasmidi farzandlarga umrni bermoq"².*

Onaning bu gaplaridan uning ruhiyatida dramaning asosi bo'lgan ichki psixologik ziddiyat hukmronligini, his-tuyg'ular kolliziyasidan uning qalbi og'ir to'qnashuvlar maydoniga aylanganligini his qilamiz. Dramaturg Ona ruhiyatidagi kechinmalar hamda o'y-mushohadalar ziddiyatini, asosan, psixologik kolliziya shaklida beradi. Dramadagi Ona obrazi umumlashma obraz bo'lib, uning qora qismatida Afg'on urushi va Chernobil fojiasining xunrezliklari bo'y ko'rsatadi.

Dramadagi xarakterlararo konfliktning yorqin ko'rinishi Ashrafiy va Melsning to'qnashuvlari orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Ashrafiy o'g'li Afg'on urushida shahid bo'lgan Onaning iztirobini, alamini his qiladi, lekin bu haqda hech kimga, hech qayerga arz qila olmasligini, zamonadan nolish qanday oqibatlarga olib borishini yaxshi biladi. Shuning uchun ham u xalq dilidagi bunday alam va iztiroblarni faqat she'r misralariga joylab taskin topadi. Do'sti Mels esa uning bunday mazmunda she'rlar bitishiga, haqiqatni baralla aytishiga umuman qarshi. Mana shu vaziyatlar ikkala do'st o'rtasidagi to'qnashuvlarning yuzaga kelishiga omil bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, fojia bu – inson taqdirining ma'lum bir qiyin, favqulodda sharoitlarda yuzaga chiqadigan bir ko'rinishi, xolos. Fojiali

² Ш у к р у л л о. Танланган асарлар, VI жилд. Пьесалар. – Тошкент: "Шарк", 2012, 12 – 13-бетлар. Кейинги мисоллар ҳам шу нашрдан олиниб, саҳифаси каве ичида кўрсатилади. – С.К.

holatlar va vaziyatlarning, fojiali to'qnashuvlarning o'ziga xos subyektiv va obyektiv sabablari bo'ladi. Shukrullo ham ushbu she'riy dramada davr va shaxs munosabatidagi nomaqbul psixologik omillarni, Afg'on urushi va Chernobil fojiasi oqibatlarini obyektiv sabab sifatida ko'rsatsa, qahramonlar ongi va ruhiyatidagi laganbardorlik, shaxsga sig'inish, qo'rqqoqlik kabi illatlarni subyektiv sabab sifatida keltiradi.

Dramada tilga olingan fojia va fojiali taqdirlar, hayotiy ziddiyat va qarama-qarshiliklar oddiy hamda tasodifiy bo'lmay, ular ijtimoiy-tarixiy xarakter kasb etadi. Chunki hayotiy ziddiyatlar, to'qnashuvlar, fojialar ijtimoiy hodisalar bo'lganligi uchun ham ular zaminida bevosita ijtimoiy jamiyat muammolari aks etadi. Fojialar va ziddiyatlar personajlarning xatti-harakatlarida, ma'naviy-axloqiy dunyosida namoyon bo'ladi va ularni azob-uqubatlarga, ba'zan esa o'limga ham mahkum etadi. "Tajribali dramaturg o'z personajlarini qiyin vaziyatlarga solib qo'yishdan xavotirlanmaydi. Aksincha, u shunday vaziyatlarni izlaydi"³, deb ta'kidlagan edi dramaturgiya badiiyati tadqiqotchisi V.Volkenshteyn. Shu ma'noda, Shukrullo ham bosh qahramonlarini qaltis vaziyatlarga, og'ir ruhiy holatlarga solib qo'yishdan cho'chimaydi. "Hasrat bog'i" dramasi bosh qahramoni Melsning ham ruhiy kechinmalari sevgilisi Jamila bilan xiyobonda uchrashib, u tomonidan sevgisi rad etilgandan keyin avj nuqtaga chiqadi. Natijada, Melsning dardlariga davoni "o'lmoqlik" deb bilishi va o'z joniga qasd qilishi psixologik holatning eng avj nuqtasini vujudga keltiradi. Dramaturg bunday iztirobli ruhiy vaziyat va holatlarni drama elementlari (monolog va dialoglarda, remarkalar)da aks ettiradi:

Mels

*Xudo g'amdan xoli qilib devonalarni,
Kimlarnidir qilar ekan sharobga ulfat.
Sevgisidan ammo mendek ayrilganlarga
Nahot, faqat davo bo'lsa o'lib ayrilmoq.
Yonidan to'pponcha olib o'zini otadi (47).*

Dramada "Hasrat bog'i"ning hasratlari yanada kuchayadi. Chunki xiyobonda yuragi muhabbat bilan limmo-lim to'la navjuvon yigit o'z joniga qasd qiladi. Shukrullo o'zining dramatik asarlarida ana shunday fojiali to'qnashuvlarni takror-takror tasvirlar ekan, o'z qahramonlari hayotida iztirobli, og'ir kechinmalarni kuchaytiradi va shu orqali ularning davrning fojiali ziddiyatlarini anglashlariga yo'l ochadi.

Ma'lumki, dramada muallif-dramaturg pozitsiyasi dramatik to'qnashuvlarning rivojida, qahramonlar xatti-harakatlari va nutqida, monolog va dialoglarda o'z aksini topadi. Tajribali dramaturg drama personajlari nutqi orqali ularning individual xarakterini ochib beradi. "Qahramonlarning o'ziga xos nutqi bir vaqtning o'zida ham individuallik, ham ijtimoiylik kasb etib, u qahramon oid

³ Волькенштейн В.М. Драматургия. – М.: "Советский писатель", 1969. – С. 31.

bo'lgan ijtimoiy muhitning o'ziga xos xususiyatlarini gavdalandiradi"⁴. Xususan, "Hasrat bog'i" dramasi qahramonlarning nutqlari yuksak mahorat bilan berilgani, ular qahramonlar harakat qilayotgan zamonga juda mos tushgan.

"Xatti-harakat bilan so'zning birligi – pyesaning muhim xususiyati. Iborahangi bilan ichki xatti-harakatning uyg'un kelishi ijodiy yutuqlardandir"⁵, – deydi H. Abdusamatov. Xususan, dramadagi yana bir personaj – Murodning amaliy harakatlari, psixologik holati va nutqiga e'tibor qaratsak:

Azim

(Murodga)

Janozaning vaqti bo'ldi, ming-ming olomon

Yelkasida ko'tarmoqda hozir tobutni.

Murod

Hukumatdan ruxsat olmay janoza o'qish...

Kommunist-ku boshimizni qo'ymang g'alvaga.

Azim

U kommunist bo'lganda ham, u musulmon-ku!

Bu gapni eshitgan Murod cho'chib qulog'ini qashlab, o'zini eshitmaganga solib keta boshlaydi (10).

Yuqoridagi parchada keltirilgan Murodning gaplari, xatti-harakatlari bir qarashda, uncha ahamiyatga ega emasdek tuyuladi. Lekin sinchkov tomoshabin yoki kitobxon mazkur sahnada drama qahramoni Murod qiyofasida, uning xatti-harakatlarida o'sha davrdagi ko'pgina insonlar xarakteri va ruhiyatidagi "hukumatdan qo'rqish psixologiyasi"ning nihoyatda aniq-tiniq aks ettirilganiga amin bo'ladi. Qolaversa, Shukrullo Murodga "qo'rqoq" laqabini berar ekan, aynan shu shartli badiiy tasvir orqali ham uning ruhiyatidagi "qo'rquv"ga ramziy ishora qiladi.

Xulosa shuki, Shukrulloning "Hasrat bog'i" she'riy dramasi Mels, Jamila, Xoliqulov, Ona, Ziyod kabi o'nlab qahramonlarning hayoti, avlodlar o'rtasidagi fojiviy zanjir badiiy talqin etiladi. Dramada zamon va qahramon tragizmi konflikt va yorqin xarakterlar yordamida mahorat bilan yoritiladi.

REZYUME. Mazkur maqolada Shukrulloning "Hasrat bog'i" she'riy dramasi tahlil etilgan. Dramada aks ettirilgan zamon va qahramon tragizmi masalasi, ya'ni "shaxsga sig'inish" oqibatlari, ijtimoiy-siyosiy tuzum yetkazgan jarohatlarning inson taqdiriga salbiy, fojiviy ta'siri muammosi tadqiq etilgan.

РЕЗИОМЕ. В данной статье анализируется стихотворная драма Шукрулло "Сад тоски". Исследуется трагедия времени и героя, отраженная в драме, то есть последствия "культ личности", проблема негативного и трагического влияния травм, нанесенных общественно-политической системой на судьбы людей.

RESUME. This article analyzes Shukrullo's verse drama "The Garden of Longing". The tragedy of time and hero reflected in the drama is explored, that is, the consequences of the "cult of personality", the problem of the negative and tragic impact of traumas inflicted by the socio-political system on the destinies of people.

⁴ Волькенштейн В.М. Драматургия. – С. 120.

⁵ Абдусаматов Х. Драма назарияси. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000, 217-бет.